




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyun)

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C – Ishlab chiqaradigan sanoat



D - Elekt. gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E – Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2711,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 102,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi ko'payishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 102,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 117,5 % ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 75,5 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 116,2 % o'sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi, % da




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvariyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini tashkil etdi.



Tumanlar miqyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mlrd. so‘mda

Tumanlar miqyosida olib qaralganida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bo‘yicha asosiy ulush G’allaorol, Zomin va Forish tumanlari hamda Jizzax shahriga to‘g‘ri keladi.




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi, tumanlar kesimida, mln. so‘mda	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi*%
G‘allaorol tumani	5310,0	18686,5	222,7
Zomin tumani	17616,6	10218,5	36,7
Forish tumani	6838,2	9505,0	88,0
Jizzax shahri	2825,5	2579,3	57,8
Baxmal tumani	924,5	1058,2	169,1
Zafarobod tumani	698,5	1047,4	94,9
Sharof Rashidov tumani	12159,5	5901,5	30,7



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2492,0 mldr. so‘nni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,9 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi, % da





Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,4 % ni (2019- yil yanvar-iyun oylarida - 3,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 3,8 % (4,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,2 % (22,2 %) va quyi texnologiyalisi – 66,5 % (59,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,8 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 144,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,1 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,7 %), boshqa metall bo'limgan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi - 11,2 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 139,9 %), kiyim-kechak ishlab chiqarish ulushi - 5,3 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 136,7 %), elektr jihozlarini ishlab chiqarish ulushi - 3,5 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatida 33,5 ming tonna bug'doy uni (2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 14,0 % ga o'sgan), 24,8 ming tonna paxta tolasi (23,7 %), 8,4 ming tonna bir qavatli ip (11,4 %), 0,7 ming tonna trikotaj polotno mahsulotlari (3,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	29415,7	33538,0	4122,3
Paxta tolasi, t.	24324,0	24755,4	431,4
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	7185,0	5024,9	-2160,1
Bir qavatli ip, t	7722,0	8438,7	716,7
Trikotaj polotnolar, t	1212,0	762,0	-450
Paxta lenti, t.	2053,0	2023,9	-29,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 144,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,5 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	60338,7	92883,5	32544,8
Boshqa bug' va issiq SUV (issiqlik energiyasi), ming gkal	6,160	5,757	-0,403
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	34094,5	31373,6	-2720,9



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi, % da



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash, Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	9649,5	13974,9	4325,4
Qayta foydalinishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	8782,9	11222,0	2439,1


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish

va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 29,4 % ga, Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 19,6 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1164,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 93,1 % ni tashkil etgan, uning jami sanoatdagi ulushi 38,4 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,9 % dan 67,7 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 41,0 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 9,9 % ni, Do'stlik tumani 9,6 % ni, Zomin tumani 8,9 % ni hamda Paxtakor tumani 5,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati yuqori ko'rsatkich Yangiobod (167,5 %), Arnasoy (125,2 %), Paxtakor (138,2 %), Ғаллаорол (106,2 %) hamda Forish (101,2 %) tumanlarida qayd etildi.



Tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	1 164,8	100,0	93,1
Jizzax shahar	477,7	41,0	94,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	36,8	3,2	125,2
Baxmal	36,5	3,1	96,4
G'allaorol	46,2	4,0	106,2
Sharof Rashidov	115,6	9,9	71,6
Do'stlik	111,9	9,6	79,6
Zomin	103,5	8,9	97,5
Zarbdor	35,4	3,0	74,8
Zafarobod	24,1	2,1	97,5
Mirzacho'l	28,1	2,4	97,2
Paxtakor	59,5	5,1	121,5
Forish	53,1	4,6	101,2
Yangiobod	36,5	3,1	167,5

Tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 30,4 %, shuningdek, Do'stlik tumani 18,7 % ni, Zomin tumani 10,3 % ni, Paxtakor tumani 8,7 % ni hamda Baxmal tumani 5,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri (163,6 %), Paxtakor tumani (124,1 %), Baxmal tumanida (106,3 %) qayd etildi.



Jizzax viloyatining tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari


	2020- yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Jizzax viloyati	2 711,8	102,0
Jizzax shahar	1 063,4	102,6
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	76,4	105,2
Baxmal	36,7	97,9
G'allaorol	74,6	105,0
Sharof Rashidov	158,4	108,3
Do'stlik	514,9	114,1
Zomin	152,4	111,1
Zarbdor	112,1	93,7
Zafarobod	128,9	127,9
Mirzacho'l	29,5	94,6
Paxtakor	234,1	118,8
Forish	92,9	102,9
Yangiobod	37,5	98,8



**Jizzax viloyati tumanlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Zafarobod (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 127,9 %), Paxtakor

(118,8%), Do'stlik (114,1 %), Zomin (111,1 %), Sharof Rashidov (108,3 %) hamda Arnasoy (105,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'tarilganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Sharof Rashidov (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 71,6 %), Zarbdor (74,8 %), Do'stlik (79,6 %), Jizzax shahrida (94,1 %), Baxmal (96,4 %), Mirzacho'l (97,2 %) tumanlarida hamda sezilarli darajada tushdi.



Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 39,2 %), Do‘slik (19,0 %), Paxtakor (8,6 %), Sharof Rashidov (5,8 %), hamda Zomin (5,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Mirzacho'l (1,1 %) hamda Yangiobod (1,4 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Do‘slik (7 837,8 ming so‘m), Jizzax shahar (5 964,2 ming so‘m), Paxtakor (3 137,7 ming so‘m), Zafarobod (2 577,1 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 952,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 838,7 ming so‘m bo‘lgani holda, Jizzax shahrida – 2 679,2 ming so‘mni, Do‘slik tumanida – 1 702,8 ming so‘mni, Yangiobod tumanida – 1 295,3 ming so‘mni, Arnasoy tumanida 799,2 ming so‘mni, Paxtakor tumanida 797,6 ming so‘mni tashkil etdi.




Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish (2020- yil yanvar-iyun oylarida, ming so‘m)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Jizzax viloyati	1 952,6	838,7
Jizzax shahar	5 964,2	2 679,2
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1 660,7	799,2
Baxmal	234,3	232,8
G'allaorol	433,3	268,1
Sharof Rashidov	714,0	521,3
Do'stlik	7 837,8	1 702,8
Zomin	927,6	629,9
Zarbdor	1 297,4	409,6
Zafarobod	2 577,1	481,4
Mirzacho'l	568,7	540,9
Paxtakor	3 137,7	797,6
Forish	1 002,1	573,1
Yangiobod	1 330,8	1 295,3



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1509,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 55,7 % ni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zomin (100,0%), Yangiobod (99,7 %), Mirzacho’l (97,5 %), Forish (94,7 %)

Viloyatimiz tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko’rsatdiki, Zafarobod (18,8 %), Zarbdor (35,4 %), Arnasoy (38,1 %), Paxtakor (40,0 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (46,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyul holatiga ko’ra)**

Bugungi kunda viloyatda 3053 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 982 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 32,2 %) Jizzax shahriga, 663 tasi (20,9 %) Sharof Rashidov tumaniga, 284 tasi (8,8 %) G'allaorol tumaniga, 266 tasi (8,3 %) Zomin tumaniga, 147 tasi (4,6 %) Forish tumaniga, 131 tasi (3,9 %) Paxtakor tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020- yil yanvar - iyun oyida viloyatda 332 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 67 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 20,2 %) Jizzax shahrida, 50 tasi (15,1 %) Sharof Rashidov tumanida, 29 tasi (8,7 %) Zarbdor tumanida, 28 tasi (8,0 %) G'allaorol tumanida, 26 tasi (7,8 %) Zomin tumanida hamda 18 tasi (6,6 %) Do'stlik va Forish tumanida tashkil etildi.



Tayyormahsulotlar, butlovchi qismlarva materiallar ishlabchiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

2020-yil yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida 45 ta loyiha bo'yicha 291,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 5,7 mln.AQSH.dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 706 ta yangi ish o'rni yaratildi.



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha 28 ta korxona tomonidan 45 ta loyiha (291,2 mlrd. so'mlik mahsulot) amalga oshirigan bo'lib, Jizzax shahrida 24 ta(220,2 mlrd. so'm), Zarbdor tumanida 3 ta (34,5mlrd.so'm), Forish tumanida 3 ta (18,2 mlrd.so'm) va Gallaorol tumanida 1 ta (13,3 mlrd.so'm), korxonalarga to'g'ri keladi.

2020 yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha 45 ta loyiha (291,2 mlrd. so'mlik mahsulot) amalga oshirigan bo'lib, Jizzax shahrida 24 ta(220,2 mlrd. so'm), Zarbdor tumanida 3 ta (34,5mlrd.so'm), Forish tumanida 3 ta (18,2 mlrd.so'm) va Gallaorol tumanida 1 ta (13,3 mlrd.so'm), korxonalarga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: (72) 221-51-13